


2020-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi iste'mol sektoridagi infliyatsiya darajasi



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy
iste'mol narxlari indeksi (INI), % da

2020-yil may

100,3

104,8

114,0

2020-yilning
apreliiga nisbatan

2019-yilning
dekabriga nisbatan

2019-yilning
mayiga nisbatan

✓ 2020-yilning mayida iste'mol narxlari va tariflarining oy davomidagi o'rtacha o'sish sur'ati **0,3 %** ni tashkil etdi.

– **ma'lumot uchun:** meva va sabzavot narxlarining o'zgarishini hisobga olmaganda, ushu ko'rsatkich darajasi **1,0 %** ni tashkil etgan.

✓ 2020-yilning yanvar-may oylari davomida iste'mol bozoridagi narxlari va tariflar o'rtacha **4,8 %** ga ko'tarildi.

✓ Yillik davrda esa (2019-yilning mayiga nisbatan) tovarlar va xizmatlar narxlarining o'rtacha o'sish sur'ati **14,0 %** ni tashkil etdi.

2019-yil may

100,7

106,0

113,7

2019-yilning
apreliiga nisbatan

2018-yilning
dekabriga nisbatan

2018-yilning
mayiga nisbatan

Taqqoslash uchun:

✓ 2019-yilning may oyida tovarlar va xizmatlar narxlari oy davomida o'rtacha **0,7 %** ga ko'tarilgan.

– **taqqoslash uchun:** meva va sabzavot narxlarining o'zgarishini hisobga olmaganda, ushu ko'rsatkich darajasi **0,8 %** ni tashkil etgan.

✓ 2019-yilning yanvar-may oylarida tovarlar va xizmatlar narxlari o'rtacha **6,0 %** ga qimmatlashgan.

✓ 2018-yilning mayiga nisbatan 2019-yilning may oyida tovarlar va xizmatlar narxlari o'rtacha **13,7 %** ga oshgan.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha INI, % da



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



O'rtacha oylik INI¹

o'sishini hisoblash natijalariga ko'ra, 2020-yilning yanvar-may oylarida ushbu ko'rsatkich **0,9 %** ni, 2019-yilning shu davrida esa **1,2 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning dekabriga nisbatan 2019 va 2020-yillarning yanvar-may oylari davomida umumiy INI ko'rsatkichlari orasidagi katta tafovut fevral oyida (mos ravishda 103,1 % ga qarshi 101,4 %, yoki 1,7 punkt), minimal darajada esa aprel oyida (105,3 % ga qarshi 104,5 %, yoki 0,8 punkt), may oyida esa 1,2 % ni tashkil etdi.


2020-yil may oyida yillik umumiy INI o'tgan oyning shu ko'rsatkichiga nisbatan 0,5 punktga pasaydi (114,5 % dan 114,0 % gacha).

Shu bilan birga, o'tgan yilning may oyiga nisbatan 2020-yilning may oyidagi natija 2019-yildagi ushbu ko'rsatkichga nisbatan 0,3 punktga baland bo'lди (114,0 % ga qarshi 113,7 %).

¹ Narxlar indeksining o'rtacha oylik o'sish sur'ati, ko'rib chiqilayotgan davrning har bir oyi uchun qisqa muddatli narx indekslarining oldingi oyga nisbatan o'rtacha geometrik qiymati sifatida hisoblanadi.

Bozorlarning yangi meva-sabzavot mahsulotlari hosili bilan to'yinganligi sababli, ushbu tovarlar guruhi umumiy narxlarining pasayishiga olib kelib, natijada joriy yilning may oyida **oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi (INI) 99,8 %** ni tashkil etdi.


Oy davomida **nooziq-ovqat mahsulotlar** narxlari **0,6 %**, **xizmatlar 0,8 %** ga oshgan.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining INI, % da

o'tgan oyga nisbatan


Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2019-yilning mayida narx va tariflarning o'sishi bo'yicha yetakchilik xizmatlarga tegishli bo'lib, narxlari oy davomida 1,5 % ga qimmatlashgan. Ushbu davrda nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari 0,7 % ga, oziq-ovqat mahsulotlari esa 0,5 % ga oshgan.



2020-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy tovarlar va xizmatlar guruhi narxlari o'zgarishining umumiy INI dagi ta'siri, f.d.

o'tgan oyga nisbatan

-0,1

+0,2


+0,2



Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Xizmatlar

- ✓ Joriy yilning may oyi davomida umumiy INIning **0,3** foiz darajaga oshishi (keyingi o'rinnlarda f.d.), **nooziq-ovqat mahsulotlar** narxlarining **0,2 f.d.**da ↑ ko'tarilishi bilan bog'liq.
- ✓ **Xizmatlar** tariflarning o'sishi natijasida umumiy INI qo'shimcha ravishda **0,2 f.d.**ga ↑ oshdi.
- ✓ Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining pasayishi natijasida umumiy INI **0,1 f.d.**ga ↓ pasaydi.

Taqqoslash uchun: oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi hisobiga 2019-yilning mayida oylik umumiyligi INI 0,2 f.d.ga oshgan. Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining o'sishi umumiyligi ko'rsatkichning ortishiga 0,2 f.d., xizmatlar 0,3 f.d.da ta'sir etgan.


Umumiy hisobda, 2020-yilning dastlabki besh oyida **oziq-ovqat mahsulotlari** narxlari darajasi **7,5 %** ga, **nooziq-ovqat mahsulotlar** **3,0 %** ga, **xizmatlar** **2,5 %** ga oshdi.

Taqqoslash uchun: 2019-yilning yanvar-mayida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar, shuningdek, xizmatlar narxlarining o'sishi mos ravishda 7,9 %, 4,6 % va 4,6 % ni tashkil etgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining INI, % da

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Xizmatlar

Har bir yirik guruhning salmoq vaznnini hisobga olgan holda, narxlarning o'zgarishiga qo'shgan hissasi tahliliga ko'ra, 2020-yilning yanvar-mayida yetakchilik borasida oziq-ovqat mahsulotlari ta'sirining ustunligi saqlanib qolganligi o'z aksini topdi. Ushbu davrda oziq-ovqat mahsulotlariga narxlarning o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan infliyatsion bosim, asta-sekin 0,4 f.d.dan (yanvar) 3,3 f.d.gacha (aprel) ko'tarilib, may oyida 3,2 f.d.gacha pasayganligi bilan ta'sir jihatidan yetakchilikni saqlab qolgan.


2019-yilning dekabr oyiga nisbatan nooziq-ovqat mahsulotlar va aholiga pullik xizmatlar narxlarining ko'tarilishi umumiyo ko'satkichning o'sishiga jiddiy ta'sir etmadi. Shunday qilib, yanvardan maygacha nooziq-ovqat mahsulotlar ko'satkichlari 0,1 f.d.dan 1,0 f.d., xizmatlar esa 0,1 f.d.dan 0,6 f.d.gacha oshgan.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi hamda umumiyl INI o'sishidagi ta'siri, f.d.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

2019-yil



2020-yil



Barcha tovarlar va xizmatlar



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Oziq-ovqat mahsulotlari




Xizmatlar

2020-yilning may oyida tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va INI o'sishidagi ta'siri tuzilmasi, % da



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlar

Xizmatlar

2019-yilning dekabr oyiga nisbatan 2020-yilning may oyida ta'sir ulushi ko'satkichlari bo'yicha INI umumiyo o'sishida oziq-ovqat mahsulotlarining hissasi 66,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 21,6 % va xizmatlar 12,0 % ni tashkil etdi.


2020-yil
may

O'zbekiston Respublikasi iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi

**2020-yilning mayida tovarlar va xizmatlar asosiy
guruhlari narxlarining o'zgarishi va umumiyl INI
o'sishiga qo'shgan hissasi, f.d. va % da**



o'tgan yilning may oyiga nisbatan



Tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va uning yillik umumiyl INI o'sishidagi ta'siriga ko'ra, joriy yilning may oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi natijasida ushbu ko'rsatkich 7,7 f.d., nooziq-ovqat mahsulotlar ta'sirida 3,3 f.d., xizmatlar narxlarining ko'tarilishi oqibatida 3,0 f.d.ga oshgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Xizmatlar

2019-yilning may oyiga nisbatan umumiyl ko'rsatkichning o'sishida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi deyarli 55,4 % ni tashkil etadi. Nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlarning ta'siri deyarli teng nisbatda bo'lib, ushbu ko'rsatkich mos ravishda 23,3 % va 21,3 % ni tashkil qiladi.


Taqqoslash uchun: 2018-yilning mayiga nisbatan 2019-yilning may oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarning o'sishi natijasida umumiyl INI 7,1 f.d.ga, nooziq-ovqat mahsulotlar ta'sirida 3,9 f.d., xizmatlar ta'sirida esa 2,7 f.d.ga oshgan.

Shunday qilib, oziq-ovqat mahsulotlarining ta'sir ulushi 52,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 28,2 %, xizmatlar 19,8 % ni tashkil etgan.

Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, 2020-yil mayida **oziq-ovqat mahsulotlari** narxlari oy davomida **0,2 %** ga arzonlashdi. Ushbu guruh mahsulotlari narxlari dinamikasini belgilovchi omil sifatida meva va sabzavot narxlarining mavsumiy pasayishi bo'ldi. Shunday qilib, meva, sabzavot va kartoshka narxlarining o'zgarishini hisobga olmaganda, bir oy davomida oziq-ovqat mahsulotlari INIning o'sishi 1,6 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019-yilning mayida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari oy davomida 0,5 % ga qimmatlashgan. 2019-yilning yanvar-may oylarida ushbu guruhning o'rtacha oylik INI o'sish sur'ati 1,5 % ni tashkil etgan.



2020-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining INI, % da



99,8

2020-yilning
apreliga nisbatan

107,5

2019-yilning
dekabriga nisbatan

118,2

2019-yilning
mayiga nisbatan

2020-yil boshidan ushbu guruh mahsulotlari narxlarining o'sish sur'ati o'rtacha **7,5 %**, oylik o'rtacha o'sish sur'ati esa **1,5 %** ni tashkil etdi.

2019-yilning may oyiga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha **18,2 %** ga qimmatlashgan.

Taqqoslash uchun: 2018-yilning dekabriga nisbatan 2019-yilning may oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 7,9 %, 2018-yilning mayiga nisbatan esa ushbu guruh mahsulotlari narxlarining o'sishi sur'ati 16,3 % ni tashkil etgan.



2020-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining INI, % da





Non mahsulotlari

Go'sht, parranda go'shti va baliq

Sut mahsulotlari

Tuxum



Mevalar, sabzavotlar va kartoshka

Shakar, choy va boshqa mahsulotlar

Yog' va moylar

Alkogolsiz ichimliklar



Spiritli ichimliklar

Kuzatilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlaridan meva va sabzavotlar narxlari oyiga o'rtacha 7,3 % ga arzonlashib, tuxum 5,5 % ga, non mahsulotlari 3,5 % ga, yog' va moylar 1,5 % ga, shakar, choy va boshqa mahsulotlar 1,2 % ga, go'sht, parranda go'shti va baliq 0,9 % ga, sut mahsulotlari 0,8 % ga, alkogolsiz ichimliklar va spiritli ichimliklar narxlari 0,7 % va 0,6 % ga qimmatlashdi.

Oy davomida umumiyligi ovqatlanish muassasalaridagi narxlar 1,0 %, yil boshidan esa 5,1 % ga ko'tarildi.

2019-yil oxiriga nisbatan meva va sabzavotlar (11,1 %), tuxum (10,9 %) va non mahsulotlari (10,5 %) narxlarining yuqori darajada o'sganligi qayd etildi.

o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

Taqqoslash uchun: 2019-yilning may oyida oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlaridan boshqalarga nisbatan sezilarli darajada alkogolsiz (1,5 %) va spirtli ichimliklar (1,4 %) narxlari ko'tarilgan. Meva-sabzavotlar narxlari 0,4 % ga qimmatlashib, tuxum narxlari esa aksincha, 1,1 % ga arzonlashgan.


2018-yilning dekabriga nisbatan narxlarning o'sishida yetakchi o'rirlarni meva-sabzavot va sut mahsulotlari (20,9 % va 9,9 %), shuningdek, umumiyligi ovqatlanish (9,9 %) narxlari egalladi. Bundan tashqari, spirtli ichimliklar (7,7 %), non mahsulotlari (4,9 %), shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarining narxlari (4,8 %) sezilarli darajada oshdi. 2018-yilning dekabr oyiga nisbatan 2019-yilning may oyida tuxum narxlari 4,3 % ga arzonlashgan.

Har bir guruh mahsulotlari narxlari o'zgarishining batafsil tahlili quyidagicha aks etgan:

**Non mahsulotlari
(yorma va dukkakllilar bilan)**



**2020-yilning may oyida
narxlarning o'sishi, % da**




Non mahsulotlaridan (yorma va dukkakllarni qo'shgan holda) ushbu guruhga taalluqli bo'lgan grechka (24,3 %) va loviya (12,6 %) narxlari boshqalarga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Ushbu mahsulotlar joriy yilning yanvar-may oylarida narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchi bo'lgan. Yil boshidan grechka narxlari 1,5 baravarga, loviya 1,3 baravarga qimmatlashgan.

Ma'lumot uchun: 2019-yilning may oyida non mahsulotlari (yorma va dukkaklilarni qo'shgan holda) 0,4 %, jumladan, yorma va dukkakli mahsulotlar narxlari o'rtacha 0,6 %, un 0,4 % ga oshdi. Umumiy hisobda, 2019-yilning yanvar-may oylari davomida ushbu guruh mahsulotlari narxlari o'rtacha 4,9 %, jumladan, yorma va dukkaklilar 7,2 %, un 3,6 %, turli navli unlardan non narxlari 0,4 % - 3,2 % oraliqda qimmatlashgan.

Go'sht, parranda go'shti va baliq

2020-yilning mayida
narxlarning o'sishi, % da



Go'sht mahsulotlari narxlari oy davomida o'rtacha 0,9 % (yil boshidan 7,1 %) ga qimmatlashdi. Tirik va sovutilgan baliq 2,1 % (9,5 %), kolbasalar 1,6 % (7,8 % - 7,9 %), qo'y go'shti 1,4 % (9,9 %), suyaksiz mol go'shti 1,0 % (7,8 %), cho'chqa go'shti 0,9 % (7,1 %), go'sht qiymasi 0,8 % (6,2 %), mol go'shti (suyaksizdan tashqari) 0,7 % (7,4 %), tovuq boldiri, son qismlari 0,4 % (3,4 %), boshqa parranda go'shti narxlari 0,1 % (1,7 %) ga ko'tarilgan.

Ma'lumot uchun: 2019-yilning may oyida go'sht mahsulotlarining narxlari o'ttacha 0,7 %, jumladan, qo'y go'shti 0,9 %, mol go'shti 0,7 % - 1,1 %, yarim tayyor go'sht mahsulotlari va ichak-chavoq, kalla-pocha 1,0 %, tirik va sovutilgan baliq 1,8 %, kolbasalar 0,3 % - 0,8 % ga ko'tarilgan. Shu bilan bir qatorda tovuq boldiri va son qismlari 0,5 % ga, boshqa turdag'i parranda go'shti mahsulotlari narxlari 0,8 % ga arzonlashgan.


Umumiy hisobda, o'tgan yilning yanvar-may oylari davomida go'sht, parranda go'shti va baliq narxlari 4,3 % ga qimmatlashgan. Ushbu davrda kolbasa mahsulotlari (11,8 % - 12,7 %), shuningdek, tirik va sovutilgan baliq (12,4 %) mahsulotlari narxlari esa boshqalarga nisbatan yuqori sur'atlarda qimmatlashgan.

Joriy yilning may oyida **tuxum** narxlari 5,5 % ga qimmatlashib, yil boshidan narxlar darajasi 10,9 % ga oshgan.



Sut mahsulotlari

2020-yilning may oyida narxlarning o'sishi (pasayishi), % da




Sut mahsulotlaridan bir oy davomida pishloqlar (1,5 % - 2,0 % oraliqda) va muz-qaymoq (1,7 %), yil boshidan esa qatiq, chuchuk qatiq (8,7 %) va sut (8,3 %) narxlari boshqalarga nisbatan sezilarli darajada o'sdi. Suzma narxlari may oyida 2,4 % ga arzonlashib, 2019-yilning dekabr oyidagi narxlarga nisbatan 3,4 % ga yuqori bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2019-yilning may oyida muzqaymoq (2,3 %), yil boshidan esa qatiq, chuchuk qatiq (14,0 %) narxlari yuqori darajada oshgan.

Shakar, choy va boshqa mahsulotlar

2020-yilning may oyida
narxlarning o'sishi, % da



Joriy yilning may oyida shakar va qand narxlari 0,4 % (yil boshidan 3,7 %), qand 0,9 % (5,1 %) ga ko'tarilgan. Oy davomida qandolat mahsulotlari narxlari o'rtacha 1,2 % (yil boshidan 5,1 %), kofe va choy 1,7 % (4,3 %), boshqa oziq-ovqat mahsulotlari (tuz, ziravorlar, qaylalar va boshqalar) 1,1 % (3,2 %) ga qimmatlashgan.

Ma'lumot uchun: 2019-yilning mayida shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha 0,4 %, jumladan, shakar 0,3 %, qandolat mahsulotlari 0,4 %, kofe va choy, shuningdek, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari 0,3 % ga qimmatlashdi. 2019-yilning yanvar-mayida ushbu guruh mahsulotlari narxlari 4,8 % ga ko'tarilib, narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchilik qandolat mahsulotlariga tegishli bo'lgan (6,8 %).

2020-yilning mayida **yog'-moy mahsulotlari**dan o'simlik yog'i oy davomida 1,5 % (jumladan, kungaboqar yog'i 1,6 %, paxta yog'i 1,4 %), margarin 1,8 %, sariyog' 1,5 %, eritilgan va hayvon yog'lari narxlari 1,0 % ga ko'tarilgan.

Yil boshidan ushbu mahsulotlar narxlari 5,4 %, jumladan, sariyog' 6,9 %, margarin 6,3 %, eritilgan va hayvon yog'lari 5,6 %, o'simlik moylari 5,1 % ga oshgan.



Ma'lumot uchun: 2019-yilning may oyida yog'-moy mahsulotlari 0,5 % (yil boshidan 3,0 %), shu jumladan margarin 0,3 % (7,1 %) va iste'mol yog'lari narxlari 0,9 % (3,4 %) ga ko'tarilgan. May oyida sariyog', kungaboqar va paxta yog'i narxlari barqaror saqlanib, yil boshidan ushbu turdag'i mahsulotlar narxlari mos ravishda 9,1 %, 1,5 % va 1,2 % ga oshgan.

Mevalar, sabzavotlar va kartoshka

2020-yilning may oyida
narxlarning o'sishi (pasayishi), % da



Meva-sabzavot mahsulotlari naxlari oy davomida o'rtacha 7,3 % ga arzonlashib, bodring (59,8 %), bulg'or qalampiri (46,0 %), shuningdek, pomidor (43,4 %), karam (31,7 %) va piyoz (29,1 %) narxlari sezilarli darajada pasaygan. Shu bilan bir qatorda limon narxlari ko'tarilishda davom etib, oy davomidagi o'sish sur'ati 21,8 % ni tashkil etgan. Bundan tashqari, banan (5,7 %), olma (3,2 %), kartoshka (2,1 %), sabzi (1,7 %) narxlari ham ko'tarilganligi qayd etilgan.

2019-yil oxiriga nisbatan mevalar, sabzavotlar va kartoshka narxlari o'rtacha 11,1 % ga qimmatlashib, narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchi pog'onalar limon (2,2 baravar), kartoshka (1,6 baravar) va olma

(1,4 baravar) mahsulotlariga taalluqlidir. 2019-yilning dekabr oyidagi narxlarga nisbatan bodring (68,8 %), pomidor (39,6 %), bulg'or qalampiri (35,3 %), karam (24,2 %), tuzlangan karam (3,9 %), piyoz (3,7 %), ko'katlar (3,4 %) narxlari arzonlashgan.

Ma'lumot uchun: 2019-yilning mayida mevalar, sabzavotlar va kartoshka narxi oy davomida 0,4 % ga oshgan. Ular orasida eng katta o'sish piyoz (24,8 %), narxlarning sezilarli darajada pasayishi esa bodring (46,9 %) mahsulotlarda qayd etilgan.

Umumiy hisobda, 2019-yilning yanvar-mayida ushbu guruh mahsulotlari narxlari 20,9 % ga qimmatlashgan. Narxlarning maksimal o'sishi 85,6 % (uzum), sezilarli darajadagi pasayishi esa 67,5 % ni (bodring) tashkil etgan.

Yil davomida oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining iste'mol narxlari o'zgarishiga kelsak, o'tgan yilning mos oyiga nisbatan narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchi o'rinni hamon tuxum narxlari egallab turibdi (52,6 %).



2020-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining INI, % da

2019-yilning may oyiga nisbatan




Oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarining ko'tarilishi va uning oy davomidagi umumiy INIning o'sishiga qo'shgan hissasi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu kengaytirilgan guruhdagi narxlar darajasining pasayishi sabzavotlarning arzonlashishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida umumiy ko'rsatkichni 0,79 f.d.ga tushirishga imkon berdi. Kuzatuvdag'i qolgan oziq-ovqat mahsulotlari guruhlari narxlarining o'sishi umumiy hisobda jami INIning 0,71 f.d.ga o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarning o'zgarishi umumiy INIning 0,08 f.d.ga pasayishini ta'minladi.



2020-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning INI o'sishidagi ta'siri tuzilmasi

o'tgan oyiga nisbatan



2019-yilning dekabr oyiga nisbatan umumiy INI tarkibidagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi eng salmoqli ulush meva-sabzavotlar guruhiiga taalluqli (3,19 f.d.dagi oziq-ovqat mahsulotlari umumiy ta'siridan 0,86 f.d.). Go'sht, parranda go'shti va baliq mahsulotlari narxlarining o'sishi sababli 2019-yilning dekabr oyiga nisbatan umumiy INI 0,73 f.d.ga, non mahsulotlari narxlari ta'sirida 0,72 f.d.ga, shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ta'sirida 0,27 f.d.ga, sut mahsulotlari naxlari ta'sirida 0,19 f.d.ga oshdi. Ushbu guruhlarning yig'ma ko'rsatkichning o'sishiga qo'shgan hissasi oziq-ovqat mahsulotlarining umumiy ta'siridan taxminan 86,8 % va jami INIning 57 % dan ko'prog'ini tashkil etdi.

Yillik davrda umumiy INI o'sishidagi ulushiga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlaridan go'sht, parranda go'shti va baliq (2,72 f.d.), non mahsulotlari (2,17 f.d.), shuningdek, shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari (0,67 f.d.) ta'siri ustunlik qilmoqda.

Nooziq-ovqat mahsulotlarning iste'mol narxlari indeksi



2020-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlarning INI, % da



2020-yilning
apreliiga nisbatan



2019-yilning
dekabriga nisbatan



2019-yilning
mayiga nisbatan

2020-yilning mayida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari o'rtacha **0,6 %** ga oshgan.

2019-yilning dekabr oyiga nisbatan mazkur guruh narxlarining o'sish sur'ati **3,0 %**, 2019-yilning mayiga nisbatan **9,4 %** ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-may oylari davomida nooziq-ovqat mahsulotlar INIning o'rtacha oylik o'sish sur'ati darajasi **0,6 %** ni tashkil etgan.

2020-yilning may oyida nooziq-ovqat mahsulotlarning asosiy guruhlari orasida gugurt (42,8 %), iplar (2,1 %), qurilish materiallari (1,7 %), shuningdek, avtomobillar uchun ehtiyoj qismlar va shaxsiy gigiyena vositalari narxlari (1,6 %) sezilarli darajada qimmatlashdi. Shu bilan birga, avtomobillar uchun yoqilg'i narxlari o'rtacha 3,6 % ga arzonlashdi.

Taqqoslash uchun: 2019-yilning may oyi davomida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari **0,7 %** ga, 2018-yilning dekabriga nisbatan esa **4,6 %** ga ko'tarilib, 2018-yilning mayiga nisbatan **11,2 %** ni tashkil etgan.

2019-yilning yanvar-may oylari davomida guruh mahsulotlari INIning o'rtacha oylik o'sish sur'ati **0,9 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2019-yilning may oyida nooziq-ovqat mahsulotlarning asosiy guruhlari orasida oy davomida narxlarning o'sishi bo'yicha iplar (1,6 %), shuningdek, mato va yigirilgan iplar (1,5 %) peshqadam bo'ldi.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar asosiy guruhalining INI, % da

o'tgan oyga nisbatan

● 2019-yil may ● 2020-yil may



2019-yilning dekabriga nisbatan narxlari oshishi bo'yicha yetakchi o'rinni gugurtga taalluqlidir (47,0 %). Keyingi o'rnlarni bosma-nashr (12,5 %), shaxsiy transport (7,4 %), dori-darmonlar (7,2 %) va tamaki mahsulotlari (5,8 %) narxlari band etgan.

Yillik davrda esa boshqa mahsulotlarga nisbatan gugurt (1,5 baravar), zargarlik buyumlari (16,5 %), avtomobillar uchun yoqilg'i

(15,6 %), shuningdek, kitoblar, gazetalar va jurnallar (15,5 %) narxlari boshqalarga nisbatan yuqori darajada qimmatlashdi.



2020-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar asosiy guruhlarining INI, % da

	2019-yilning dekabriga nisbatan	2019-yilning mayiga nisbatan	
	Kiyim-kechak	102,9	108,1
	Oyoq kiyim	102,2	107,5
	Mato va yigirilgan iplar	102,6	107,8
	Maishiy to'qimachilik mahsulotlari	102,5	107,9
	Madaniy mollar	101,9	106,2
	Qurilish materiallari	103,6	108,2
	Dori-darmonlar	107,2	114,1
	Shaxsiy gigiyena mahsulotlari	103,9	109,9
	Avtomobillar uchun yoqilg'i	96,8	115,6
	Asosiy maishiy mahsulotlar va elektr jihozlari	101,8	106,8
	Kitoblar, gazetalar va jurnallar	112,5	115,5
	Zargarlik buyumlari	102,7	116,5
	Yuvish va tozalash vositalari	105,4	109,8
	Mebel	101,0	105,3
	Tamaki mahsulotlari	105,8	113,6
	Shaxsiy transport	107,4	111,9

Nooziq-ovqat mahsulotlar asosiy guruhlaringin narxlari o'zgarishi va ularning oy davomida umumiyligi INI o'sishiga qo'shgan hissasiga kelsak, 2020-yilning may oyi natijalariga ko'ra, salmoq vaznlarni hisobga olgan holda qurilish materiallari (0,06 f.d.) va dori-darmonlar (0,04 f.d.) narxlaringin o'sishi sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Kiyim-kechak va oyoq kiyim narxlari ta'sirida umumiyligi ko'rsatkich qo'shimcha ravishda 0,03 f.d.ga, yuvish va tozalash hamda shaxsiy gigiyena vositalarining ta'sirida 0,05 f.d.ga, asosiy maishiy tovarlar va elektr jihozlari, oshxona anjomlari umumiyligi ta'sirida 0,02 f.d.ga oshgan. Boshqa nooziq-ovqat mahsulotlar guruhi narxlaringin o'sishi ta'sirida umumiyligi ko'rsatkich 0,08 f.d.ga oshdi, ammo, bu avtomobillar uchun yoqilg'i narxlaringin pasayishi bilan qoplanib, natijada umumiyligi INIning aynan shu miqdorda pasayishiga olib keldi.



2020-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar asosiy guruhlari narxlaringin o'zgarishi va umumiyligi INIdagi hissasi, f.d. va % da

o'tgan oyga nisbatan

0,03

Kiyim-kechak va oyoq kiyim

0,06

Qurilish materiallari

0,02

Asosiy maishiy mahsulotlar va elektr jihozlari, oshxona jihozlari va buyumlari

0,02


Yuvish va tozalash vositalari

0,04

Dori-darmonlar

0,03

Shaxsiy gigiyena mahsulotlari




Taqqoslash uchun: 2019-yilning mayida nooziq-ovqat mahsulotlardan oy davomida umumiyligi INIning o'sishiga asosan kiyim-kechak va oyoq kiyim (0,07 f.d.), shuningdek, qurilish materiallari (0,03 f.d.) narxlaringin o'zgarishi ta'sir etgan.

Izoh: hissani hisoblashda natijalar 0,01 f.d.gacha yaxlitlanadi va ushbu ma'lumotlar ta'sir foizini aniqlash uchun ishlataligan.

2019-yilning dekabr oyiga nisbatan ham nooziq-ovqat mahsulotlardan umumiyligi INIning o'sishiga qo'shgan hissasi bo'yicha ustunlik kiyim-kechak va dori-darmon narxlari tegishli bo'lib (jami ta'sir darajasi 0,44 f.d., yoki nooziq-ovqat mahsulotlarning umumiyligi ta'siridan 42,0 %), 2019-yilning may oyiga nisbatan ham shular jumlasidandir (1,08 f.d., yoki 33,0 % atrofida).

Xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun
pullik xizmatlarning INI, % da

2020-yil may



2020-yilning
apreliga nisbatan



2019-yilning
dekabriga nisbatan



2019-yilning
mayiga nisbatan

2020-yilning mayida aholi uchun pullik xizmatlar tariflarining oy davomidagi o'sish sur'ati **0,8 %** ni, 2020-yilning yanvar-may oylari davomida ushbu guruh INIning o'rtacha oylik o'sish sur'ati **0,5 %** ni tashkil etgan.


2019-yilning oxiriga nisbatan narxlarning o'sish sur'ati **2,5 %**, yillik davrda esa **13,0 %** ni tashkil etdi.

2019-yil may

Taqqoslash uchun: 2019-yilning mayida aholi uchun pullik xizmatlar tariflari oy davomida **1,5 %** ni, yanvar-may oylari davomida ushbu guruh INIning o'rtacha oylik o'sish sur'ati **0,9 %** ni tashkil etgan.

2019-yilning birinchi besh oyi davomida ushbu sohadagi tariflarning o'sish sur'ati **4,6 %** ni tashkil etgan.

2018-yilning may oyiga nisbatan aholi uchun pullik xizmatlar narxlari o'rtacha **12,5 %** ga ortgan.



2019-yilning
apreliga nisbatan



2018-yilning
dekabriga nisbatan



2018-yilning
mayiga nisbatan

2020-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish alohida guruhlarining INI, % da



o'tgan oyga nisbatan



Joriy yilning mayida kuzatilayotgan aholi uchun pullik xizmatlar orasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rnlarda MTT) xizmatlari narxlari boshqalarga nisbatan yuqori darajada qimmatlashgan (15,2 %).

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-fevral kuni "2020-yil uchun davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar to'lovi miqdorlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 114-son qarori asosida to'lov miqdorlari oshirilgan. O'z-o'zini izolyatsiya qilish rejimi bilan bog'liq holda, to'lovlar amalga oshirilmagan bo'lsa ham, ularning o'zgarishi amaldagi uslubiy nizomga muvofiq tuzilgan yig'ma INIga kiritilgan.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning may oyida umumiy xizmatlar narxlarining 1,5 % ga ko'tarilishida ham yetakchi o'rinni MTT xizmatlari band etgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budgeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga budget mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-som qarori ijrosi yuzasidan, 2019-yilning 1-may kunidan boshlab davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar to'lovi miqdori 20,5 % ga oshirilgan.

Umumiy hisobda, 2020-yilning yanvar oyidan may oyiga qadar boshqalarga nisbatan MTT (15,2 %), dam olish (6,1 %), shuningdek, maishiy (4,5 %) xizmatlar narxları sezilarli darajada qimmatlashgan.



2020-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun alohida pullik xizmatlar guruhlarining INI, % da

Xizmatlar nomi	2019-yilning dekabriga nisbatan	2019-yilning mayiga nisbatan
Maishiy xizmatlar	104,5	114,5
Uy-joy kommunal xizmatlari	100,1	116,4
Yo'lovchi tashish transporti xizmatlari	102,2	112,9
Aloqa xizmatlari	100,2	101,2
Madaniyat muassasalari xizmatlari	101,0	103,3
Sport xizmatlari	101,2	108,2
Dam olish xizmatlari	106,1	110,8
Tibbiy xizmatlar	104,3	113,7
Ta'lim xizmatlari	103,4	118,0
MTT xizmatlari	115,2	115,2

Aholi uchun pullik xizmatlar tariflarining yil davomidagi o'zgarishiga kelsak, kuzatilayotgan asosiy guruhlardan ta'lif xizmatlari narxlarining yaqqol sur'atda oshganligi ro'yxatga olingan (18,0 %). Bundan tashqari, uy-joy kommunal (16,4 %), MTT (15,2 %), tibbiy (13,7 %), shuningdek, yo'lovchi tashish transporti xizmatlari (12,9 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashgan.

Ma'lumot uchun: 2018-yilning dekabriga nisbatan 2019-yilning may oyida aholiga pullik xizmat ko'rsatish sohasidagi narxlar va tariflarning o'sishi bo'yicha yetakchilik mактабгача ta'lif (20,5 %), shuningdek, dam olish (9,0 %) va maishiy (8,6 %) xizmatlar narxlariga tegishlidir.


2018-yilning may oyiga nisbatan ta'lif (22,7 %) hamda MTT (18,7 %) sohasidagi xizmatlar narxlari sezilarli darajada oshgan.




2020-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va INI o'sishidagi ta'siri tuzilmasi

o'tgan oyga nisbatan

umumiy INI o'sishidagi hissasi, f.d.



pullik xizmatlar ta'siridagi ulushi, % da



Maishiy xizmatlar

Yo'lovchi tashish transporti xizmatlari

MTT xizmatlari

Tibbiy xizmatlar

Boshqalar

2020-yilning mayida xizmatlar asosiy guruhlari tariflarining o'zgarishi va ularning umumiy INI o'sishidagi ulushini baholasak, bu boradagi yetakchilik MTT xizmatlari narxlariga tegishli deb aytish mumkin (0,08 f.d.).

Izoh: hissani hisoblashda natijalar 0,01 f.d.gacha yaxlitlanadi va ushbu ma'lumotlar ta'sir foizini aniqlash uchun ishlataligan.

Ma'lumot uchun: 2019-yilning may oyida aholiga pullik xizmatlar ko'rsatishning asosiy turlaridan MTT xizmatlari narxlarining oshishi – umumiyl INI o'sishiga salmoqli hissa qo'shgan.

2019-yilning oxiriga nisbatan aholiga pullik xizmatlarning asosiy turlaridan maishiy xizmatlar tariflarining qimmatlashishi umumiyl INI ko'rsatkichining o'sishiga salmoqli hissa qo'shgan (0,20 f.d., yoki pullik xizmatlar umumiyl ta'sirining qariyb 35,0 %). Bundan tashqari, tibbiy va ta'lim xizmatlari (umumiyl hisobda 0,18 f.d., yoki 30,8 %), shuningdek, yo'lovchi tashish transporti xizmatlari (0,07 f.d., yoki 12,1 %) narxlarining oshishi ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Yillik davrda umumiyl ko'rsatkichning o'sishiga ta'siri jihatidan yetakchi o'rinalar hamon uy-joy communal (0,99 f.d.), maishiy (0,66 f.d.), yo'lovchi tashish transporti (0,40 f.d.), ta'lim (0,36 f.d.), shuningdek, tibbiy xizmatlar (0,34 f.d.) narxlariga tegishlidir.



Ma'lumot uchun: hozirgi vaqtida dunyoning ko'plab mamlakatlarini qamrab olgan koronavirus pandemiyasi (COVID-19) INI shakllantirish uchun ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash jarayoniga o'zgarishlar kirdi.

Xususan, deyarli barcha mamlakatlarning (shu jumladan, O'zbekistonda ham) statistika idoralari tomonidan tanlangan chakana savdo punktlarida (ya'ni tovarlar va xizmatlar, mavjud bo'limgan narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar) "ytishmayotgan tovarlar" sonini ko'payishi muammosiga duch keldilar. Savdo do'konlarining vaqtincha yopilishi, shuningdek, harakatlanish cheklovlari ma'lumot yig'ishning standart usullaridan foydalanishga imkon bermadi.

Bunday sharoitda, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi "Pandemiya davrida iste'mol narxlari indeksining hisoblanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar" (XVF), shuningdek, "Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: Nazariya va amaliyot" (Xalqaro Valyuta Fondi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevropa hamjamiyati statistika byurosi (Yevrostat), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YelK), Butunjahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va "Tovar va xizmatlarning iste'mol narxlari(tariflari) kuzatuvini tashkil etish va iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"da keltirilgan tavsiyalardan foydalanilgan (<https://lib.stat.uz/ru/features-3/tseny>).

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisining 2020-yil 13-apreldagi 24-sonli buyrug'i bilan "Iste'mol narxlari kuzatuvida

ayrim tovarlar va xizmatlar narxlarini (tariflarini) telefon so'rovi (veb yoki onlayn savdo platformalar) orqali aniqlash bo'yicha vaqtinchalik tartib" tasdiqlangan. Uni taylorlash jarayonida yuqorida ko'rsatilgan hujjatlardagi tavsiyalar inobatga olingan.

Narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashda maxsus dasturiy ta'minot va planshet qurilmalari asosida CAPI texnologiyasi qo'llanilgan.

Xususan, yetishmayotgan tovarlar va xizmatlarni baholashda quyidagi usullardan foydalanildi:

1) o'rganish davrida sotuvda bo'limgan, ammo tovarlar va xizmatlar narxlari to'g'risida mavjud bo'lgan ma'lumotlar bo'yicha narxlar qayd etilgan (sotuvchilarning telefon orqali so'rovi, sayt ma'lumotlari va boshqalar);

2) ayrim turlar bo'yicha tovarlar yoki xizmatlarni yetkazib beruvchilar bilan birgalikda narxlari dinamikasining ekspert bahosi o'tkazildi (masalan, havo va temir yo'l transporti xizmatlari, turistik xizmatlar va boshqalar);

3) narxlari to'g'risida to'liq ma'lumot mavjud bo'limgan tovarlar va xizmatlar turlari uchun mavjud ma'lumotlardan foydalanib, yetishmayotgan tovarlar va xizmatlar narxlari to'g'risidagi eng so'nggi ma'lumotlarini (2020-yilning aprel oyi ma'lumotlari) o'xshash tovarlar (xizmatlar) yoki yuqori turuvchi guruhlar narxlarining o'zgarishi bo'yicha indeksatsiyalashni ta'minlaydigan "hisoblash" uslubi qo'llanilgan.

Joriy yilning may oyida narxlari va tariflar kuzatuvi uchun tanlangan savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari umumiylashtirilganidan 56,7 % atrifida savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalari faoliyat yuritgan.

Narxlari statistikasi boshqarmasi
+998 71-230-80-36, 71-230-81-74